



JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI

**INKLYUZIV MEDIA KLUBI HAMDA “INKLYUZIV
VOLONTYORLAR” GURUHI TO‘G‘RISIDAGI NIZOM**

06/01/2026

**Mas’ul ofis:
Yoshlar ishlari ofisi**

Inklyuziv media klubi hamda “Inklyuziv volontyorlar” guruhi NIZOMI

Mazkur Nizom Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti rektorining 2026-yil 6-yanvardagi 1-2-UM-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

Nizom Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida Inklyuziv media klubi hamda “Inklyuziv volontyorlar” guruhi faoliyatini tashkil etishning asosiy maqsadlari, vazifalari, yo‘nalishlari va tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilaydi. Ushbu nizom Universitet talabalarini ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy va psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularning tashabbuskorligi va jamoatchilik faolligini oshirish, o‘zaro hamkorlik, hurmat va sog‘lom muloqot muhitini shakllantirishga qaratilgan.

Nizomda Klub va Guruh faoliyatining asosiy prinsiplari, jumladan, qonuniylik, ixtiyoriylik, tenglik, ochiqlik, o‘zaro hurmat, mas‘uliyat, maxfiylik hamda Universitetning ichki tartib-qoidalariga rioya etish tamoyillari nazarda tutiladi. Klub va Guruh faoliyatida ishtirok etuvchi shaxslarning sha‘ni, qadr-qimmatini, huquq va qonuniy manfaatlarini hurmat qilish, shuningdek, sog‘lom va xavfsiz ijtimoiy-psixologik muhitni ta‘minlash muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilanadi.

Mazkur hujjat Klub va Guruhning asosiy maqsad va vazifalarini, faoliyat shakllarini, a‘zolikka qabul qilish va a‘zolikni tugatish tartibini, a‘zolarining huquq va majburiyatlarini, shuningdek, faoliyatni boshqarish va muvofiqlashtirish mexanizmlarini tartibga soladi. Nizom doirasida uchrashuvlar, davra suhbatlari, seminarlar, treninglar, ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar, psixologik maslahatlar, ijtimoiy loyihalar va boshqa tegishli tadbirlarni tashkil etish nazarda tutiladi.

Klub va Guruh faoliyati talabalar o‘rtasida jamoaviy hamkorlikni rivojlantirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va tegishli mutaxassislar ko‘magida hal etishga ko‘maklashish, shuningdek, talabalarining ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi.

Klub va Guruh faoliyatiga umumiy rahbarlik maslahatchi ustozlar tomonidan amalga oshiriladi. Maslahatchi ustozlar faoliyat belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq tashkil etilishi, a‘zolarga uslubiy va amaliy ko‘mak ko‘rsatilishi, tadbirlarning sifatli va samarali o‘tkazilishi hamda Universitetning ichki hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlaydi.

Klub va Guruh faoliyati Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining Yoshlar ishlari ofisi, Besh muhim tashabbus markazi hamda Universitet psixologi bilan hamkorlikda muvofiqlashtiriladi. Mazkur tarkibiy bo‘linmalar o‘z vakolatlari doirasida tashkiliy, uslubiy, axborot va maslahat ko‘magini ko‘rsatadi, qo‘shma tadbirlar va loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etadi hamda faoliyat samaradorligini oshirishga ko‘maklashadi.

Nizomda Klub va Guruh faoliyatini rejalashtirish, o‘tkazilgan tadbirlar yuzasidan tegishli ma‘lumotlarni shakllantirish, faoliyat natijalarini tahlil qilish hamda Universitetning mas‘ul tarkibiy bo‘linmalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish

tartibi ham belgilangan. Faoliyat davomida Universitet obro'si, korporativ qadriyatlari, odob-axloq me'yorlari va ichki tartib-qoidalariga qat'iy rioya etilishi lozim.

Maslahatchi ustozlar tarkibi

1.	Yusupdjanov Odil Abdugafurovich	Yoshlar masalalari va ma'naviy- ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor	rais
2.	Turdimatov Amanbay Bazarbayevich	Rektor maslahatchisi	a'zo
3.	Tashev Farrux Muzaffarovich	Bosh yuriskonsult v.v.b	a'zo
4.	Shakirova Shoxida Yusupovna	Besh muhim tashabbus markazi rahbari	a'zo
5.	Tillaxodjayeva Sayora Qobiljonovna	Yoshlar ishlari ofisi bosh mutaxassis	a'zo
6.	Raxmatullaev Abdulaziz Ismatulla o'g'li	Yoshlar ishlari ofisi bosh mutaxassis	a'zo
7.	Ernazarova Feruza G'ofurovna	Yoshlar ishlari ofisi yetakchi mutaxassisi	kotib
8.	Norova Nargiza Ma'murovna	JIDU psixologi	a'zo
9.	Ubaydullayev Ziyodulla Sagdullayevich	Yuridik klinika rahbari	a'zo
10.	Xakimov Alisher Botirjonovich	Talabalar turar joyi menedjeri	a'zo
11.	Shakirova Gulasal Alisherovna	PR va marketing ofisi bosh mutaxassisi	a'zo
12.	Raximov Akmalsher Rasulovich	O'zbekiston Yoshlar ittifoqi UBT yetakchisi	a'zo
13.	Muxammadov Jahongir Baxtiyor o'g'li	Universitet talabalar kengashi raisi	a'zo

Mazkur Nizomning to'liq matni bilan tanishish hamda qo'shimcha ma'lumot olish uchun JIDU [Yoshlar ishlari ofisi](#)ga murojaat qilishingiz mumkin.